DAVLAT BYUDJETINING BEVOSITA SOLIQLARDAN DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Mingturayev Abdusalom Abdumalik o‘g‘li
O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Received: 16.08.2025
Revised: 18.08.2025
Accepted: 19.08.2025
Key words:
davlat byudjeti, bevosita soliqlar, byudjet daromadlari, soliq siyosati, iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy boshqaruv, soliq tizimi, soliqlarni tartibga solish.

Abstract
Ushbu maqolada davlat byudjetining bevosita soliqlardan daromadlarini shakllantirishning iqtisodiy va moliyaviy ahamiyati tahlil qilinadi. Bevosita soliqlar orqali davlat byudjetiga keladigan daromadlarning barqarorligi va ularning davlat iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlashdagi roli o‘rganiladi. Shuningdek, soliqlarni tartibga solish mexanizmlari, soliq siyosati vositalari va byudjet daromadlarini oshirish uchun samarali strategiyalar haqida fikr yuritiladi. Maqola davlat byudjetining mustahkam moliyaviy bazasini yaratish uchun bevosita soliqlarning o‘rni va ularning samarali boshqarilishi zarurligini ta’kidlaydi.

Biz soliq tarixiga murojat qilar ekanmiz, islom dunyosiga to‘xtalmasdan ilojimiz yo‘q. Islom dunyosida soliqlar dastlab sadaqa va zakot sifatida shakllangan va majburiy sadaqa sifatida qaralgan zakot, keyinchalik rasman soliqqa aylangan. Davlatning rivojlanishi va hukmdorlarning almashishi bilan soliqlar ham o‘zgarib kelgan. Xususan, Markaziy Osiyo hududida arablar hukmronlik qilgan davrda soliqqa tortish ancha takomillashgan va quyidagi soliq turlari amal qilgan, jumladan juz’ya- jon solig‘i; xiroj- yer solig‘i; vazifa- o‘lpon solig‘i va zakot- xayr- ehson ehtiyojlari uchun soliq va boshqalar (Isroilov B.I. Soliqlar hisobi va tahlili: muammolar va ularning yechimlari. O‘R DSQ Soliq akademiyasi, O‘R OO‘MTV, Samarqand ISI. – T.: O‘zbekiston, 2006. – 11 b.).

Amir Temur hukmronligi davrida soliqlar va soliqqa tortish tizimida buyuk islohotlar o‘tkazilgan. Amir Temur davridagi soliq turlariga quyidagilarni misol keltirish mumkin: xiroj – hosilning o‘ndan bir qismidan uchdan bir qismigacha undirilishi nazardan tutilgan yer solig‘i; molu – jihod – natura va pul shaklida

undirilgan mulk solig‘i; tanga – hunarmand va savdogarlardan olingan soliq; shuningdek, bu davrda bojxona to‘lovi – “boj” ham joriy qilingan.

Ta’kidlash lozimki, Amir Temur o‘zining moliya va soliq qonunlarini ishlab chiqishda o‘zidan oldingi hukmdorlarning tajribasidan hamda o‘z imperiyasiga tegishli mamlakatlar soliq tizimining ijobiy tomonlaridan foydalangan. U o‘zining “Temur tuzuklari”da soliqqa tortish tamoyillari to‘g‘risida quyidagi fikrlarni yozganlar: “agar yerlik fuqaro azaldan berib kelgan xiroj miqdoriga rozi bo‘lsa, ularning roziligi bilan ish ko‘rsinlar, aks holda xirojni tuzukka muvofiq yig‘sinlar. Yana amr qildimki, xirojni eskidan olingan hosilga va yerning unumdorligiga qarab yig‘sinlar” (Temur tuzuklari. / Forschadan A.Sog‘uniy va H.Karomatov tarj. qilg. B.Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996. – 120 b.) degan.

Bu bilan Amir Temur soliqqa tortishning adolatlilik tamoyilini ko‘zda tutgan. Shuningdek, Amir Temurning soliq siyosatida soliq imtiyozlariga ham alohida e’tibor qaratilgan: “.... kimki biron sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bog‘ ko‘kartirsa, yohud biron xarob bo‘lib yotgan yerni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olmasinlar, ikkinchi yili raiyat o‘zi roziligi bilan berganini olsinlar, uchinchi yili esa soliq qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig‘sinlar” (Temur tuzuklari. / Forschadan A.Sog‘uniy va H.Karomatov tarj. qilg. B.Ahmedov tahriri ostida. – T.: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1996. – 120 b.)).

Amir Temur soliqlarni joriy qilishda avvalo xalq manfaatini hisobga olish va aholining tabaqalanishi, boy-badavlatlik darajasini inobatga olish g‘oyasiga amal qilgan hamda fuqarolarga soliqlarni yig‘ish bo‘yicha muddatlar belgilab qo‘yish zarurligi ta’kidlangan.

Mirzo Ulug‘bek hukmronligi davriga kelib aholidan undiriladigan yer solig‘i “xiroj” miqdori ma’lum darajada kamaytirilgan (Isroilov B.I. Soliqlar hisobi va tahlili: muammolar va ularning yechimlari. O‘R DSQ Soliq

akademiyasi, O‘R OO‘MTV, Samarqand ISI. – T.: O‘zbekiston, 2006. – 15 b.). Shuningdek, yer va mol-mulk soliqlari Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklarida ham xazinani to‘ldiradigan asosiy soliqlardan hisoblangan (Shaulov D.I. va boshq. Soliq qonunchiligi asoslari: O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2000. – 34 b.).

Rossiya soliqlar tarixida qiziqarli va fojiali davr sifatida Petr I- chi (1672-1725 yillar) davri hisoblanadi. Ma’lumki, ushbu davrdagi urushlar natijasida armiyani qayta jihozlash va rossiya flotini tashkil etish uchun mablag‘lar yetishmas edi. Aynan, shu maqsadda, amalda bo‘lgan soliqlar miqdori oshirilishi bilan birga, dragun (chor armiyasida ham otda, ham piyoda harakat qila olgan askar) yig‘imi, gerb yig‘imi, kema qurilishi uchun yig‘im kabi yangi soliqlar joriy qilingan. Lekin bunday chora tadbirlar asosiy vazifa davlat g‘aznasini to‘ldirish masalasini hal qila olmagan, va 1717 yilda Petr I-chi ko‘plagan turdagi soliqlarni bitta to‘g‘ri soliq (aholi jon boshiga solig‘i) bilan almashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilgan. Aytishimiz kerak, ushbu soliq islohotining e’tiborga loyiq tomoni shundan iborat bo‘lib, unda soliq to‘lashi lozim bo‘lgan aholi soni ro‘yxatga olingan, hattoki krestyanlar va boshqa to‘lovchilarning jinsiy kategoriyalari bo‘yicha erkak va ayollar to‘laydigan tushumlarning taqsimot nisbati ishlab chiqilgan. Shuningdek, Petr I-chi soliqlar yig‘ilishini bevosita nazorat qiluvchi «kamer-kollegiy» va «shtabs-kontor» idoralarini tuzib davlat moliyasi boshqarilishini qayta tashkil etgan (Akinin P.V. i dr. Nalogi i nalogooblojenie: Ucheb. posobie. – M.: Eksmo, 2008. – s. 13.).

XVIII asr oxirida Adam Smit (1723-1790 yillar) tomonidan soliqqa tortishning ilmiy nazariyasi ishlab chiqilgan. U “Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to‘g‘risidagi tadqiqotlar” nomli asarida daromadlarni korxona kapitalidan va davlat mulkidan olinadigan daromad va soliqlarga bo‘lgan. Adam Smitning asosiy xulosalari shundan iboratki, “natura va pul shaklidagi barcha boyliklarning manbai bo‘lib mehnat hisoblanadi. Har qanday millat boyligi ikkita

omilga, ya’ni: ishlab chiqarishda band bo‘lgan aholi salmog‘iga va mehnat unumdorligi darajasiga bog‘liq” (Chernik D.G. i dr. Nalogi i nalogooblojenie: Uchebnik. – 3 izd., pererab. i dop. – M.: MSFER, 2006. – s. 6.).

David Rikardo (1772-1823 yillar) “Siyosiy iqtisod va soliqqa tortishning boshlanishi” nomli kitobida “soliq nazariyasini renta va ish haqi nazariyalari bilan bevosita bog‘liq munosabatlar deb qaraydi. U o‘zining tadqiqotlari natijasi o‘laroq davlat daromadlarining bosh manbai kapital egalarining foydasi degan xulosaga kelgan” (Pushkareva V.M. Istoriya finansovoy mыsli politiki nalogov: Uchebn.posobie. – M.: Finansы i statistika, 2005. – s. 18.). Bu nazariya g‘oyasi hozirgi zamon qonunchiligida ham o‘z aksini topmoqda.

Soliq nazariyasining rivojlanishiga marjinalistlar maktabi vakillari (K.Menger, F.Vizer, I.Tyunen, A.Kurno va boshqalar) tomonidan ham muayyan hissa qo‘shilgan. Marjinalizm – bu, iqtisodiy jarayonlarni o‘rganishda me’yoriy o‘lchamlardan foydalanishga asoslangan siyosiy iqtisod tamoyillaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Marjinalizm maktabi vakillari iqtisodiy jarayonlarni tadqiq qilishda: bahoning belgilanishi, narh masalalarini tahlil qilishdan tashqari soliqqa tortish masalalarini ham o‘rganishgan. Ushbu maktab vakillarining soliqqa tortish borasidagi ilmiy ishlari progressivlik tamoyilini asoslashga olib kelgan va soliqqa tortilmaydigan minimum asoslangan (Akinin P.V. i dr. Nalogi i nalogooblojenie: Ucheb. posobie. – M.: Eksmo, 2008. – s. 23.). Hozirgi vaqtda, soliqqa tortilmaydigan minimumni asoslash g‘oyasi barcha iqtisodiy rivojlangan davlatlar soliq tizimida ko‘llanilmoqda.